



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRINING BUYRUG'I

Toshkent sh.

No 217

2024-y. "26" 04

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni ijrosini ta'minlash to'g'risida

Mamlakatimizda milliy kino san'ati va sanoatini jadal rivojlantirish hamda sohaga investitsiyalarni jalb qilish borasidagi islohotlarni ro'yobga chiqarishda Madaniyat vazirligi huzuridagi Kinematografiya agentligi faoliyati natijadorligini yanada oshirish maqsadida

BUYURAMAN:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 27-martdagi PF-52-son Farmoni va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 27-martdagi 27/1-962 son topshirig'i ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur Farmonga asosan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-yanvardagi "Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo'lga qo'yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-14-son Farmoniga 1-ilovaning "16. Madaniyat vazirligi" bo'limi "shu jumladan direktor o'rribosarlari soni" pozitsiyasi "Jami boshqaruva shtat birliklari soni" va "Davlat byudjeti hisobidan" ustunlaridagi "1" raqami "2" raqami bilan almashtirilganligi inobatga olinsin.

3. O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi Kinematografiya agentligi markaziy apparatining tarkibiy tuzilmasi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Kinematografiya agentligi (F.Abduxalikov):

O'zbekiston Respublikasi mehnat qonunchiligiga asosan xodimlar bilan tuzilgan mehnat shartnomalariga tegishli o'zgartirishlar kiritish choralarini ko'rsin;

xodimlar o'rtasida lavozim majburiyatlarini taqsimlashda hamda markaziy apparatning tarkibiy bo'linmalari va ularning shtat birliklarini shakllantirishda rahbar xodimlar va ijrochilar markaziy apparat bo'yicha kamida 1/3 nisbatda bo'lishini inobatga olsin;

Kinematografiya agentligiga davlat fuqarolik xizmatchilarini ishga qabul qilishda suhbat jarayonlarida vazirlikning Kinematografiya sohasini muvofiqlahtirish bo'limi xodimlarining onlayn ishtirokini ta'minlasin.

5. O'zbekiston Respublikasi madaniyat vazirining 2023-yil 27-noyabrdagi 228-son buyrug'i 1, 3-ilovalari o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

6. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilish vazirining birinchi o'rribosari A.Tadjixanov zimmasiga yuklansin.


Vazir



O. Nazarbekov

O‘zbekiston Respublikasi
madaniyat vazirining 2024-yil
iyundagi ILOVA-son buyrug‘iga

Kinematografiya agentligi markaziy apparatining TUZILMASI



Boshqaruva xodimlarining umumiy cheklangan soni – 37 nafar.
Ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish va texnik xodimlar soni qonunchilik hujjattarida belgilangan normativlarga muvofiq aniqlanadi.